

5. Dyurkgeym E. «Jámiyetlik miynetin bóliniwi haqqında». –Odessa: 1900.

6. Olimov Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. -T.: Fan va texnologiya, 2015.

REZYUME. Maqolada muallif tomonidan milliy dasturlar va urf -odatlarining jamoada bajaradigan asosiy funkciyalariga to'xtalib o'tilgan. Shuning jo'rligida ularning ma'naviy tarbiya, asosan farzand tarbiyasidagi ahamiyatini ochib bergan.

РЕЗЮМЕ. В статье автор коснулся основных функций национальных программ и обычаев в обществе. Поэтому он раскрыл важность их духовного воспитания, главным образом в воспитании детей.

SUMMARY. The article touches on the main functions that the author performs in the national programs and customs of your team. Therefore, in his service, he revealed their importance in spiritual education, mainly in the upbringing of children.

UDK 378.016:37.091.3

MULTIMEDIAVIY MASHQLAR O'ZBEK VA INGLIZ TILLARINI O'QITISHNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA

Sh.Sh.Yuldasheva – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

G.K.Ktaybekova – *magistrant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, mashq, multimediaiy mashq, raqamli texnologiya.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, упражнение, мультимедийные упражнения, цифровая технология.

Key words: English language, Uzbek language, exercise, multimedia task, digital technology.

Kirish. Zamonamiz o'qituvchisini tashvishlantirayotgan muammolardan biri o'quvchi-talabalarning darsga qiziqishini ushlab turish masalasidir. O'qishga qiziqish masalasi turli tadqiqotlarda o'rganilmoqda [17;18;]. Bu borada mutaxassislar tomonidan yangilikka bo'lgan tabiiy istak-qiziqishlar va an'anaviy o'qitish usullari o'rtasidagi ziddiyatning hal etilmayotganligi degan xulosalar taqdim qilinmoqda [7; 10; 11; 12; 13]. Darhaqiqat, ko'pchilik o'quvchi-talabalar zamonaviy gajetlarga qiziqishadi. O'qitish usullarining aksariyati esa o'quvchi-talabalarda bilimlarni faol idrok etish va anglash, ularning kognitiv qiziqishini oshirishga qaratilmayotganligini tan olish o'rinlidir. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun mavjud ziddiyatni bartaraf etish, ta'limda axborot va raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini hisobga olish taqozo qilinadi. Vaholanki, pandemiya ta'limning hamma bosqichlarida ham axborot texnologiyalarining qo'llanilishida, raqamli ta'lim vositalari imkoniyatlaridan foydalanish borasida qator masalalarni yuzaga chiqardi. Chunki oliy ta'limdan farqli ravishda umumta'lim maktablari axborotlashtirish va multimedia resurslarini joriy etish jarayoni jadal amalga oshirilmayotgan edi. Pandemiya jarayonni jadallashtirdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi umumta'lim maktablari ham, oliy ta'limda ham gumanitar fanlarni, xususan, tillarni o'qitishda multimediali o'quv resurslarini bosqima-bosqich tatbiq qilishni taqozo qilmoqda. Biroq ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitishda internet tarmog'idagi multimediaiy resurslarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanilishini yetarli darajada deb aytolmaymiz. Ta'kidlash zarurki, o'zbek tili ta'limda multimedia vositalaridan samarali foydalanish masalasi ham yetarlicha ilmiy-nazariy va amaliy tadqiq qilinmagan. bunga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shuning uchun bu boradagi tadqiqotlar, shubhasiz, dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlarga sharh. Butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar talablariga ko'ra o'quv fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishga ustuvorlik berilmoqda [1,2,3]. Shuningdek, ta'limning barcha bo'g'inlari oldida o'zbek tilini va xorijiy tillarni rivojlantirish va ularni o'qitish istiqbollarini belgilashda olib borilayotgan islohotlarning o'rini alohida ta'kidlash zarur [4,5]. Bu esa o'zbek tili va chet tillari ta'limiga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Chet tilini o'qitishda mashqlar va ularning tasnifi, metodikasi V.A.Buxbinder, I.L.Bim, N.D.Galskova,

N.I.Geiz, L.V.Skalkina, Y.I.Passov, I.V.Raxmaninov, A.N.Shukin, S.F.Shatilovlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekistonda A.G'ulomov, O.R.Rozikov, M.Saidov, G'.Hamroyevlar [8, 14, 20] tomonidan o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitishda mashqlar va ulardan foydalanish metodikasi, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish masalalari tadqiq qilgan. Barcha olimlar va metodistlar multimedia texnologiyalari o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash qobiliyatini sezilarli darajada kengaytirganligi va bu imkoniyatdan, albatta, ta'lim tizimida barcha bosqichlar foydalanish zarurligi haqidagi xulosalar taqdim qilingan. Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'zbek tili va ingliz tilini o'rganishda multimediaiy mashqlardan foydalanishda muayyan tafovutlar ko'zga tashlanadi. Jahonda tillarni ona tili, xorijiy til, ikkinchi til sifatida o'rganish metodikasida mashqlar va topshiriqlarni axborot va multimedia texnologiyalari bilan integratsiyalash masalasi muhim tadqiqotlar mavzusi bo'lgan (L.N.Chuksina – ingliz tili, S.M.Kashuk – fransuz tili va h.k.) [19; 9]. Bu borada o'zbek tilini o'qitishda mashqlarni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash borasidagi tadqiqotlarni yetarli deb bo'lmaydi.

Tadqiqot maqsadi ingliz tili ta'limida sinalgan multimediaiy mashqlarni o'zbek tilini o'qitish jarayoniga tatbiq etish samaradorligini nazariy asoslash va tajribasinoqdan o'tkazish, multimediaiy mashqlarni foydalanish metodikasiga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqolada Nukus davlat pedagogika instituti metodistlari tomonidan umumta'lim maktablari va OTMlarda o'zbek tili darslarini o'qitishda multimediaiy mashqlarini integratsiyalash va raqamli ta'lim resurslarini tatbiq qilish bo'yicha o'tkazilayotgan tajribalar yoritib berildi.

Materiallar va metodlar. Ishda nazariy va metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, tushunchalarni aniqlashtirish, til o'qitishni raqamlashtirish jarayonini kuzatish, ommaviy o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Butun dunyoda barcha yoshlardagi kishilarda ingliz tilini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. O'quvchilar maktabni tugatib o'qishni oliy ta'limda, talabalar esa tahsilni magistratura bosqichida davom qildirish uchun ham ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatlariga ega bo'lish maqsadiga ko'ra bu tilda gapirish, o'qish, yozish ko'nikma va malakalarini egallashga intilishadi. Ingliz tilida internet tarmog'ida multimediali ta'lim resurslari, jumladan, multimediali taqdimotlar, elektron lug'atlar, o'quv qo'llanmalar, test

yaratuvchilar va ta'limiy o'yinlar yaratuvchi dasturlar yetarli va o'quv jarayonida ham samarali qo'llanilmoqda.

Ingliz tili va o'zbek tilini o'qitish jarayonida multimediyaviy mashqlardan foydalanish jarayonini kuzatish va o'rganishlar shuni tasdiqladiki, bu fanlarni o'qitish nazariyasi va amaliyotida multimedia resurslarga bo'lgan ehtiyoj va ularning ahamiyatini bir xil deb baholash mumkin emas. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida raqamli resurslar qatorida multimediyaviy mashqlarga murojaat qilishda muntazamlik kuzatilsa, aksincha, o'zbek tili mashg'ulotlarida multimediyaviy mashqlar emas, balki an'anaviy mashqlarga ustuvorlik berilayotganligi aniqlandi. Multimediyaviy mashqlar ingliz tilini o'rganish OTM devorlari ichida bo'lgani holda talabalarni chet tilidagi muloqot vaziyatlariga imkon qadar yaqinlashtirmoqda. Audio va videomatnlar lingvistik va madaniy materialni idrok etish imkoniyatini paydo qilmoqdi. Bu holat talabalarda ingliz tili darslariga qiziqishni kuchaytirmoqda. Mana shu afzalliklar tadqiqotda belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish zarur, degan fikrga kelishimizga asos bo'ldi. Avvalo, ingliz tilidagi multimediyaviy mashqlarni andoza qilgan holda o'zbek tili darslarida foydalanish muammosi bo'yicha mavjud nazariy va metodik adabiyotlar tahlil qilindi va lingvodidaktik maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lgan onlayn platformalar ro'yxati aniqlandi. Bu ro'yxatdan o'rin olgan multimediyaviy mashqlar yaratuvchi onlayn platformalar pullik yoki bepul ekanligi, tinglab tushunish va gapirish malakalarini rivojlantirish ehtiyojiga mos kelishi yoki mos kelmasligi kabi mezonlar asosida tasnif qilindi. Onlayn konstruktorlar orasida Quizziz, Liveworksheets, LearningApp konstruktorlarining afzalliklari aniqlandi. Mazkur onlayn platformalarda o'zbek tili darslarining muayyan bosqichlari va o'quv materiallari mazmuniga mos o'quv faoliyatini inobatga olgan holda multimediyaviy mashqlar turlaridan foydalanib darslarning qismlari namuna sifatida modellashtirishirildi.

Ma'lumki, mashqlar mavzuni o'zlashtirish maqsadida muayyan bir harakatlarni takroran bajarishdir. Til ta'limida mashqlar og'zaki yoki yozma bajariladi. Mashqlarda nutqiy faoliyatning to'rtta turini, ya'ni tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalarini ham rivojlantirish e'tiborga olinadi. Bundan multimediyaviy mashqlar ham mustasno emas. Multimedia – rasm va matnli axborotni tovushli va harakatdagi shakllardan iborat axborot bilan birlashtirish texnologiyasidir. Bular taqdimotlar, elektron darsliklar, filmlar va boshqalardir. Multimediyaviy mashqlarda ham taqdimotlarda bo'lgani kabi musiqa, rasm, tasvir va filmlardan foydalaniladi. Ko'rgazmalilik multimedia asosini tashkil etadi. Fan o'qituvchilari bunday mashqlarni ko'pincha ishlash qulay va tushunarli bo'lgan PowerPoint dasturida imkon qadar yaratib, foydalanadilar. Tillarni o'qitish vositalarini o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashqlarni axborot va multimedia texnologiyalari bilan integratsiyalash uchun test yaratishga mo'ljallangan dasturlar fan o'qituvchilarining mehnatini yanada yengillashtiradi. Xususan, Ispring, Hotpotatoes va b. O'zbek tilini o'qitishda mazkur dasturlar muayyan darajada tatbiq qilingan.

Multimediyaviy interfaol mashqlar yaratish uchun so'zlar, so'z birlikmalari, iboralar, gaplar, matnlardan foydalaniladi. Dars mavzusi va maqsadidan kelib chiqqan holda mashq turi tanlanadi va til materiallari belgilanadi. Masalan, "Vatan va vatanparvarlik" mavzusini o'rganishda o'rganuvchilarning mavzuga oid so'zlar imlosini o'rganganlarini tekshirish uchun pazzl mashqi mos keladi



Rasm. https://learningapps.org/da_pazzl_mashqi

Bunda bo'sh o'ringa kiritilishi kerak bo'lgan muayyan unli va undosh harflar to'g'ri tanlanishi kerak. Aks holda, rasm ochilmaydi.

O'quvchilarga mashqning havolasini (<https://learningapps.org/view29981633>) yoki uning QR kodini yuborish va ularni frontal, jamoaviy yoki yakka tartibda foydalanish mumkin. Mashqlar to'g'ri bajarilganda "Balli! Hammasini o'z o'rniga joyladingiz!" degan olqishlar o'quvchi/talabalarining ruhiyatiga ijobiy ta'sir qildi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, mazkur mashqlarni interfaol doska yordamida bajartirish yaxshi samara berdi. Bunda o'qituvchi o'quvchi-talabalarni doskaga taklif qiladi. Doskadagi o'quvchi bajargan va topgan yoki yozgan javoblarni boshqa o'quvchilar muhokama qilishsa o'zbek tilining talaffuz, imlo yoki punktatsion me'yorlari, qoidalarini eslash, qo'llash, ona tili yoki ingliz qoidalarini bilan qiyoslash kabi faoliyat turlari mavzuni yaxshi o'rganish uchun qulay sharoit paydo qiladi. Multimediyaviy mashqlar o'quvchi/talabalarni faollashtiradi. Ularda o'quv materiallari bilan tezroq tanishish istagi paydo bo'ladi. Chunki shundagina ularda to'g'ri javoblarni tez va oson topish mumkinligini anglab yetadilar.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida OTMlarining o'zbek tili darslarida mutdimediyaviy mashqlardan foydalanish samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil qilindi. Yuqori sinflarda va oliy ta'limning 1-bosqichida ingliz va o'zbek tillarini o'qitish jarayonida multimediyaviy mashqlarni tatbiq qilish jarayonida o'quvchi/talabalarda fanni o'rganishga qiziqishning ortganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Fikrimizni o'quv yili davomida noyabr va fevral oylarida o'tkazilgan so'rovnomalarda, suhbatlar va monitoring natijalari tasdiqlaydi. Dastlabki nazorat ishlari va so'rovnomalarda 67 foiz o'quvchida o'zbek tili darslariga qiziqish mavjud bo'lsa, 3-chorak o'rtasida bu ko'rsatkich 83 foizga yetdi. 1-bosqich talabalarining o'zbek tili darslariga munosabatida ham keskin o'zgarishlar aniqlandi, xususan, dastlabki o'rganishlarga ko'ra 59 foiz talaba mazkur fanning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga zaruriyatini to'g'ri baholagan va ijobiy munosabatini ifodalagan bo'lsa, semestr yakunida bu ko'rsatkich 76 foizga teng bo'ldi.

Tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyoslash tavsiya qilinayotgan metodikaning samaradorligini ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, natijadorlik multimediali mashqlar an'anaviy mashqlar muqobili sifatida muntazam foydalanilsa yaxshi namoyon bo'ladi.

Xulosalar va tavsiyalar. O'quvchi/talabalar ingliz tilini multimedia texnologiyalari yordamida qiziqib o'rganishadi. Demak, o'zbek tilini o'rganishga qiziqish uyg'otish, avvalo, o'quv materialini qiziqarli taqdim qilinishiga bog'liq bo'ladi. O'zbek tilini o'rganish jarayonida bu vositalardan, xususan, multimediyaviy mashqlarni tatbiq qilishda o'quvchi/talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalari jarayonni jadallashtiradi.

Tajriba-sinov natijasida multimedia texnologiyalari o'zbek tili va ingliz tilini oliy ta'limda talabalarining nutqiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha bilim, ko'nima va

malakalarini rivojlantirishi mumkinligi dallilandi. Natijalar tahlilidagi muhim nuqta shuki, multimediyaviy mashqlar nafaqat muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'zbek xalqi madaniyati, urf-odatlarini, adabiyoti bilan tanishishga bo'lgan rag'batni kuchaytirishga hamda tilni o'rganish tezligiga ham samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Multimediyaviy mashqlar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam berdi:

- fan bo'yicha asosiy bilimlarni o'zlashtirish;
- o'zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta'minlash;
- o'z-o'zini nazorat ko'nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish;

– o'quvchilarni o'quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o'quv-metodik yordam ko'rsatish.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning istiqbolli yo'nalishi sifatida o'zbek tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar vositasida o'rganuvchilarda lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qilish masalasini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Muammoni raqamli lingvodidaktika va boshqa sohalar yutuqlariga tayanib o'rganish va muammoga kompleks yondashish keyingi tadqiqotlar muvaffaqiyati va til ta'limi samaradorligi omili bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so'zi. 2019-yil 30-aprel, № 88.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. <https://lex.uz/docs/-5058351>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
6. Бурцева Э.В., О.А.Чепак, О.А.Куликова. Некоторые результаты исследования влияния цифровых технологий на учебную деятельность студентов // Педагогика и просвещение. 2020. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-rezultaty-issledovaniya-vliyaniya-tsifrovyyh-tehnologiy-na-uchebnyuyu-deyatelnost-studentov> (дата обращения: 01.05.2023).
7. Готлиб Д.Л. Обучение иностранному языку как фактор повышения мотивации школьников в условиях модернизации образования. Дисс. канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2021.
8. Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дисс. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. 37-б.
9. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования : на примере обучения французскому языку. Дисс. док. пед. наук. – М.: 2014. –С. 427.
10. Костикова Л.П., Чернявская Е.С. Цифровые технологии как средство повышения учебной мотивации студентов вуза. 2019. Межкультурная коммуникация и профессионально ориентированное обучение иностранным языкам: материалы XIII Междунар. науч. конф., посвящ. 98-летию образования Белорус. гос. ун-та, Минск, 30 окт. 2019 г. / Белорус. гос. ун-т ; редкол.: В. Г. Шадурицкий (пред.) [и др.]. -Минск : БГУ, 2019. – С. 112-116.
11. Кузнецова Л.А. Цифровые образовательные технологии в мотивации студентов // Материалы XIV Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» URL: <https://scienceforum.ru/2022/article/2018029501> (дата обращения: 30.04.2023).</p>
 <\/li>
 12. Кулиева Ш.А., Д.В.Тавберидзе. Методы мотивации студентов при обучении английскому языку в вузе // Мир науки. Педагогика и психология. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-motivatsii-studentov-pri-obuchanii-angliyskomu-yazyku-v-vuze> (дата обращения: 30.04.2023).https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-povysheniya-motivatsii-studentov-k-izucheniyu-inostrannogo-yazyka-v-neyazykovom-vuze (дата обращения: 30.04.2023).https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-motivatsii-studentov-k-obucheniyyu-inostrannomu-yazyku-v-neyazykovom-vuze (дата обращения: 30.04.2023).https://cyberleninka.ru/article/n/problema-motivatsii-studentov-k-izucheniyu-inostrannogo-yazyka-v-period-perehoda-na-distantsionnyy-format-obucheniya (дата обращения: 30.04.2023).

20. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Она тили таълимида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент: 2022. 240-б.

РЕЗЮМЕ. Zamonamiz o'qituvchisini tashvishlantirayotgan muammolardan biri o'quvchi-talabalarning darsga qiziqishini ushlab turish masalasidir. O'qishga qiziqish masalasi turli tadqiqotlarda o'rganilmoqda. Bu borada mutaxassislar tomonidan yangilikka bo'lgan tabiiy istak-qiziqishlar va an'anaviy o'qitish usullari o'rtasidagi ziddiyatning hal etilmayotganligi degan xulosalar taqdim qilinmoqda. Darhaqiqat, ko'pchilik o'quvchi-talabalar zamonaviy gajetlarga qiziqishadi. O'qitish usullarining aksariyati esa o'quvchi-talabalarda bilimlarni faol idrok etish va anglash, ularning kognitiv qiziqishini oshirishga qaratilmayotganligini tan olish o'rindir. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun mavjud ziddiyatni bartaraf etish, ta'limda axborot va raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini hisobga olish taqozo qilinadi.

РЕЗЮМЕ. Одной из задач, поставленных перед сегодняшним учителем, является вопрос повышения интереса учащихся к уроку. Отсутствие интереса учащихся к образованию сегодня изучается в различных исследованиях. Результаты исследования позволяют сделать вывод о том, что основной причиной демотивации студентов к обучению стало несоответствие между естественным стремлением учащихся к инновациям и традиционными методами обучения. Мы видим, что многие студенты интересуются современными гаджетами. Разумно признать, что большинство методов обучения ориентированы не на активное восприятие и осмысление знаний учащимися, а на повышение их познавательного интереса. Для успешного решения проблемы необходимо устранить существующее несоответствие, используя возможности информационных и цифровых технологий в образовании.

SUMMARY. One of the tasks put forward before today's teacher is the issue of rising students' interest to the lesson. Learners' lack of interest to education is being studied in various researches today. Research results come to the conclusions that the discord between the natural desire of learners for innovation and traditional teaching methods has become the main reason of students' demotivation to learning. We see that many students are interested in modern gadgets. It is reasonable to admit that most of the teaching methods are not focused on the active perception and understanding of knowledge in students, and on increasing their cognitive interest. In order to solve the problem successfully, it is necessary to eliminate the existing mismatching by using the possibilities of information and digital technologies in education.

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ РАЗЛИЧИЙ НА РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ УЗБЕКСКИХ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

*С.А.Зияева – доктор педагогических наук (DSc), профессор
УзГУМЯ*

Таянч сўзлар: нутқ хатти-ҳаракати, мулоқотнинг доминант хусусиятлари, менталитет, коммуникатив зиддият, миллий ва маданий ўзига хослик, ҳушмуомалалик ифодаси, ўқитиш самарадорлиги.

Ключевые слова: речевое поведение, доминантные особенности общения, менталитет, коммуникативный конфликт, национально-культурная специфика, выражение вежливости, эффективность преподавания.

Key words: speech behavior, dominant features of communication, mentality, communicative conflict, national and cultural specificity, the expression of politeness, the effectiveness of teaching.

Преподавание иностранцами тех или иных учебных дисциплин студентам групп с узбекским языком обучения имеет свои нюансы как в плане языкового барьера, так и в плане национально-культурной самобытности узбекского народа и его менталитета, оказывающего непосредственное влияние на характер устанавливаемого контакта между преподавателем и студентами.

Как известно, в процессе своей педагогической деятельности преподаватель заинтересован в построении корректного коммуникативного поведения и создании соответствующих его принципам и взглядам, а также целям и задачам обучения условий общения. Соблюдение норм речевого поведения как студентами, так и самим преподавателем является при этом одним из основных гарантов эффективности диалога и взаимопонимания между ними, тем более если речь идет об обучении студентов-узбеков преподавателем – иностранцем.

Незнание преподавателем-иностранцем доминантных особенностей общения и в целом менталитета узбекского народа может породить в учебном процессе коммуникативный конфликт, в основе которого будут лежать разные национально и культурно обусловленные модели речевого поведения преподавателя и обучающихся, следовательно, наличие или отсутствие ожидаемых участниками коммуникативного акта знаков внимания.

Естественно, что проявление адресатом знаков внимания еще нельзя оценивать как гарант положительного исхода общения: принципиально важным выступает искренность говорящего при выражении тех или иных интенций. Так, например, при выражении благодарности «адресант только тогда должен благодарить адресата, когда он находится в

определенном эмоциональном состоянии, а именно в состоянии благодарности» [4:63].

Кроме того, помимо психологического фактора на успешность коммуникативного акта влияют и другие, например, социолингвистические факторы, к которым можно отнести учет ситуации контекста, статуса коммуникантов, их социальных ролей, социальной дистанции между ними, возраста, пола и других обстоятельств, предполагающих выбор соответствующих лингвистических средств выражения. Выбор соответствующих лингвистических средств выражения мыслей и волеизъявления в любом языке имеет свою национально-культурную специфику.

Так, доминантные особенности общения лиц других национальностей коренным образом отличаются от доминантных особенностей общения узбекского народа. К примеру, доминантные особенности общения немцев заключаются в их стремлении к защите своей территории (личного пространства, времени, мыслей, чувств, знаний): «Немцы заботятся о защите своей территории. При чем для них также важна неприкосновенность чужой территории, поэтому в общении немцы сдержанны, проявляют малоинформированность, отвечают «не знаю» на многие вопросы, не относящиеся непосредственно к их занятиям. В немецкой лингвокультурологической общности не принято вмешиваться в дела других, обращаться с просьбами к незнакомым» [1:103].

Узбекский народ, наоборот, является очень словоохотливым и внимательным к собеседнику, гостеприимным, хлебосольным, у узбеков принято даже с незнакомыми здороваться рукопожатиями, а в некоторых ситуациях и целоваться. Например, нередко при обращении к ним незнакомому человеку с вопросом или просьбой, представители узбекской